


“Istiqlol davri tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” mavzusida respublika ilmiy anjumani o’tkazildi

2021-yilning 15-sentyabr kuni O’zbekiston Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining o’ttiz yilligi munosabati bilan tashkil etiladigan “Istiqlol davri tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumani o’tkazildi. Unda respublikamizning turli hududlaridan, oliy ta’lim muassasalaridan yetakchi olim va mutaxassislar, professor-o’qituvchilar, yosh tadqiqotchilar, talabalar ishtirok etishdi.









Anjuman ishi plenar va tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik sho’balarida olib borildi.

Unda mustaqillik davrida o’zbek mumtoz adabiyoti tadqiqi, o’zbek tilshunosligi taraqqiyoti, istiqlol davri o’zbek she’riyatining o’ziga xosligi, baxshichilik va folklorshunoslik ishlarining o’rganilishi, zamonaviy tilshunoslikka bag’ishlangan bir-biridan qiziqarli ma’ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.